

YANGI O‘ZBEKISTONDA YANGICHA PEDAGOGIKA VA KELAJAK KASBLARIGA YO‘NALTIRISH.

*Asqarov Elbek Erkinjon o‘g‘li,
Qo‘qon Universiteti Raqamli texnologiyalar
va matematika kafedrasida o‘qituvchisi
Tel: [+\(99\)-890-855-01-21](tel:+998908550121)*

Email: elbek.asqarov10@gmail.com

*“Insonning qo‘liga bir dona baliq ber – u bir kun to‘q bo‘ladi,
unga baliq tutishni o‘rgat – u butun umri davomida to‘q yuradi”.*

Xitoy xalq maqoli

Annotatsiya. Jahon miqiyosida tezkorlik bilan o‘zgarayotgan davrda yashayapmiz. Bugun bizni eng so‘nggi texnologiya ham hayratga solishi mushkul. Nima uchun bunday? Sababi bu olamda har lahzada o‘zgarish bo‘lyapti, hayron qolishga ulgur olmayapmiz. Barcha sohalar avtomatlashtirilsa, biz insonlar nima bilan shug‘ullanamiz? Fikrni bir joyga jamlab, o‘ylash lozim: qaysi kasbni boshidan tutsam, ertaga u jamiyatga foyda olib keladimi? Bugun tanlagan mutaxassisligim bilan kelajakda ishsiz qolmaymanmi? Bu borada yoshlarni kasbga yo‘naltirish ishlarining ahamiyati o‘zgacha.

Kalit so‘zlar: Python, Java, data analysis, 3D, Game Development; Sun‘iy intellect, Arduino.

Asosiy qism. Xo‘sh, O‘zbekistonda qaysi soha jadallik bilan rivojlanyapti, yaqin kelajakda qanday kadrlarga ehtiyoj ortadi? Azamat Akbarov («Ipak yo‘li» turizm xalqaro universiteti birinchi prorektori): qilgan maruzasida shunday deydi – 2035 yilga borib dunyoda 70 foizga yaqin ish avtomatizatsiyaga o‘tadi. Yaqin kelajakda O‘zbekiston aholisi 40-42 millionga yetishini hisobga oladigan bo‘lsak, mehnat bozorida kadrlarga ehtiyoj kengayadi. Bunda OTMlar raqobatbardosh o‘quv reja ishlab chiqishlari kerak. Bitiruvchi talabalarimizga beradigan diplomimiz kamida o‘n yil o‘z kuchini yo‘qotmasligi kerak. Zamon o‘zgarib ketyapti, oliygohlar o‘z konsepsiyasini o‘zgartiryapti. AQShning Silikon vodiysi (mashhur texnologik kompaniyalar joylashgan joy)ga borsangiz, 4 yillik diplom emas, axborot texnologiyalari bo‘yicha oylik kurslar sertifikatining o‘zi kifoya qilmoqda. O‘zbekiston turizmi jadallik bilan ildamlab boryapti. Bu vaziyat sohada yetuk kadrlarga ehtiyojni paydo qiladi. Shuni anglagan holda, keyingi o‘quv yilidan boshlab universitetimizda respublikada ilk bor influyenserlik marketingi va sayohat jurnalistikasi mutaxassisliklarini ochmoqchimiz. Nima uchun? G‘arbda 18-35 yoshdagi insonlarning 70 foizi blogerlarning ijtimoiy tarmoqlarda izohlarini o‘qib sayohat rejalarini tuzisharkan. Demak, ularning turizmga ta'siri juda katta. Bizning universitetimizda imtihonlardan tashqari 14 hafta to‘liq

o'qish davri hisoblanadi. Semestr mobaynida kamida 4 marta soha bo'yicha amaliyotchi mutaxassisni mashg'ulot o'tishga taklif qilish bo'yicha o'qituvchilarimizga vazifa yuklaganmiz. Chunki maqsadimiz – universitet va mehnat bozori o'rtasidagi uzilgan rishtalarni bog'lashdir. Aksariyat bitiruvchi talabalar o'z sohasida qanday yangiliklar bo'layotganidan umuman xabari yo'q. Bunday bo'lmasligi uchun ish beruvchilar bilan har semestrda kamida bir marta majlis o'tkazmoqchimiz. Ulardan talabalarimizning salohiyati haqida so'raymiz, o'qitishda qanday kamchiliklarga yo'l qo'yayotganimiz bo'yicha fikrlashamiz. Ish beruvchilarning talab takliflarini o'rganib, o'quv rejaga yangi fanlar kiritamiz, olib tashlashimiz ham mumkin. Shunday ekan, ish beruvchilarning fikri XXI asr universitetlarining asosiy tamoyili bo'lishi kerak. O'quv rejalarimizni dunyo trendlariga, ya'ni kelajak kasblariga qarab o'zgartirishimiz kerak. Bunda bizga eng katta ko'makchilar – ish beruvchilardir, chunki ular sohadagi barcha o'zgarishlardan xabardor. «Yangi tamoyillar asosida rivojlanayotgan ta'lim tizimi yosh avlodni barkamol ma'naviy yetuk inson sifatida shakllantirishga qaratilgandir» — deyiladi Kadrlar tayyorlash milliy dasturida. Ana shunday barkamol insonni tarbiyalash masalasi o'qituvchining pedagogik mahoratiga ko'p jihatdan bog'liq. Buyuk alloma inson ruhiyatining muhandisi Abu ali Ibn Sino o'zining «Tib qonunlari» asarida shunday fikr bayon qiladi: «O'qituvchining barcha hatti - harakatlari ezgulikdan iborat bo'lmog'i lozim». Ezgulik avvalo bola qalbiga yo'l topishdan boshlanadi. U bilan g'amxo'r, hamnafas bo'lish, beg'ubor qalb egasini hurmat qilish, hohish - istaklariga befarq bo'lmaslik, bir so'z bilan aytganda bolajon bo'lish zarur. Germaniyada maktab va bog'cha bolalari OTMlarga ekskursiya qilishadi. Bola tafakkurini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashini shakllantirishda yangi zamonaviy bilimlarni keng ko'lamlari olib borilishi kerak. Chunki bolaning bilish, yangiliklarni qabul qilish doirasi keng, undan to'g'ri samarali foydalanish esa o'qituvchilarning vazifasidir. Respublikamiz hukumati xalq ta'limi sohasida o'rta qo'yayotgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan o'qituvchiga bog'liq. Hozirgi sharoitda ta'lim tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadlarga yetishish, o'quvchilarning xilma-xil faoliyatlarini uyushtirish, ularni bilimli, e'tiqodli, mehnatsevar, barkamol inson qilib o'stirish o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan. Xalqimizning kelajagi, mustaqil O'zbekistonning istiqloli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligi, fidoyiligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Uzluksiz pedagogik ta'lim g'oyasi amalga oshirilmoqda. SHu munosabat bilan o'qituvchilar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ishi davlat va jamoatchilik diqqat markaziga qo'yildi. Biror kasbning haqiqiy ustasi bo'lish uchun kishida tabiiy qobiliyat, ma'lum jismoniy va ruhiy xislatlar jo bo'lishi kerak. Pedagogning o'qituvchilik faoliyatini, yoshlarni o'qitish va tarbiyalash ishini samarali bajarishi, ota-onalar va bolalarning izzat - hurmatiga sazovor bo'lishi uchun ham unda qobiliyat,

mahorat, qiziqish bo‘lmog‘i lozim. “Kelajak kasblari” loyihasini takomillashtirish konsepsiyasi bilan quyida qisqacha tanishib chiqishingiz mumkin.

I. Umumiy qoidalar Ushbu tartib O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyundagi 312-son Qarori 2-ilovasi bilan tasdiqlangan Nizomning 8-bo‘limi “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarga zamonaviy kasblarni egallashi, axborot texnologiyalarini o‘rganishi va ularni xorijiy tillarga o‘qitish bo‘yicha o‘quv kurslarida o‘qish xarajatlarini qoplash uchun subsidiya ajratish tartibi” doirasida o‘quv markazlari uchun qo‘yiladigan talablarning belgilaydi. “Kelajak kasblari” loyihasining oliy maqsadi – bilimli, mehnatsevar, zamonaviy kasb va xorijiy tilni puxta o‘zlashtirgan, hayotda o‘z o‘rnini topa oladigan yoshlarni shakllantirish.

II. Zamonaviy kasblar, axborot texnologiyalari va xorijiy tillar yo‘nalishlari Zamonaviy kasblar sifatida quyidagi yo‘nalishlar inobatga olinadi: Marketing va digital marketing Ijtimoiy tarmoqlarda marketing (SMM) Grafik dizayn Moliya-buxgalteriya menejeri Loyiha boshqaruvchisi (project manager) Sotuv menejeri Robototexnika mutaxassisi Video montaj ustasi Boshqa yo‘nalishlar o‘quv markazlarining arizalaridan kelib chiqib, Agentlikning xulosasi asosida kiritilishi mumkin. Zamonaviy kasblar yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim deganda an’anaviy turdagi kasb-hunarlar hamda kelgusida mahalliy mehnat bozorida talab bo‘lishi ehtimoli past bo‘lgan yo‘nalishlar inobatga olinmaydi. Axborot texnologiyalari yo‘nalishi bo‘yicha quyidagilar inobatga olinadi: Dasturiy ta’minot (frontend, backend, Python, Java, data analysis, mobil dasturlash va boshqalar) 3D (interyer dizayn, animator, modeling) Game Development; Sun’iy intellekt. Boshqa yo‘nalishlar o‘quv markazlarining arizalaridan kelib chiqib, Agentlikning xulosasi asosida kiritilishi mumkin. Xorijiy tillar yo‘nalishi bo‘yicha dastlabki bosqichda chet davlatlarga mehnat qilish maqsadida jo‘nab ketgan yoshlar sonidan kelib chiqib, quyidagi xorijiy tillar bo‘yicha ta’lim beradigan o‘quv markazlari qo‘llab-quvvatlanadi: Ingliz tili; Rus tili; Koreys tili; Yapon tili; Xitoy tili; Nemis tili. Boshqa yo‘nalishlar o‘quv markazlarining arizalaridan kelib chiqib, Agentlikning xulosasi asosida kiritilishi mumkin. Xorijiy tillar yo‘nalishi bo‘yicha shu tilda so‘zlasha olish, yozish, o‘qish va eshitishga qaratilgan ta’lim dasturlari nazarda tutilgan. Oliy ta’lim muassasalariga abitruentlarni tayyorlash kurslari bundan mustasno.

III. O‘quv markazlariga qo‘yiladigan talablar va o‘quvchilarning ijtimoiy majburiyatlari O‘quv markazlariga qo‘yiladigan talablar: O‘quv markazining majburiyatlari “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlar va o‘quv markazi o‘rtasida shartnoma imzolash va shartnomaning bir nusxasini Vasiylik kengashiga taqdim etish; ta’lim oluvchilarda mehnat qilish va mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni kasbiy yo‘naltirishga va kasb tanlashiga ko‘maklashish; o‘quvchilarning barcha dars mashg‘ulotlarni ularni qoldirmasdan ishtirok etishini, topshirilgan vazifalarni bajarishini, ta’lim dasturlari bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtirib

olishini ta'minlash; loyiha doirasida "Yoshlar daftari" jamg'armasi mablag'lari hisobidan o'quv xarajatlari qoplab berilgan o'quvchilardan qo'shimcha pul talab qilib olmaslik o'quv markazida, ayniqsa shartnoma doirasida ta'lim olayotgan yoshlar o'rtasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati, yoshlar uchun yaratilgan imtiyozlar va imkoniyatlar, Yoshlar ishlari agentligi va uning faoliyati to'g'risida muntazam targ'ibot ishlarini amalga oshirishi; O'quv markazida barcha o'quvchilar uchun tanishish imkonini beradigan, ko'zga tashlanib turadigan qismlarining (binoga kirish zali, o'quvchilarga xizmat ko'rsatish xonasi, qabulxona va boshqalar) kamida 1 ta joyida "Kelajak kasblari" loyihasi doirasida ta'lim olgan yoshlarning o'quv markazi tomonidan kelgusida ish bilan ta'minlanishiga ko'maklashish loyiha doirasida hamkorlik qilish uchun ustuvorlik beradi. O'quvchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar. O'quv markazi joylashgan bino xonalarining ta'lim olish uchun ta'mirlangan, yorug'lik darajasi yetarli bo'lishi (zamonaviy ko'rinishga ega o'quv markazlariga ustuvorlik beriladi); Texnika xavfsizligini inobatga olgan holda, xonalarda havo aylanish tizimi hamda yoz-qish mavsumiga tayyor bo'lishi; yo'nalishlardan kelib chiqib, ta'lim beriladigan o'quv xonalarida zaruriy o'quv jihozlari (doska, marker, proyektor, kompyuter, noutbuk, audio va vizual moslamalar, Arduino va boshqalar) bilan ta'minlanishi; Darsdan keyin qo'shimcha mashg'ulot olib borish uchun hudud "coworking zona" mavjud bo'lishi (ustunlik beriladi) lozim. O'qituvchilarning bilim darajasi va mazkur yo'nalishdagi ish tajribasi ta'lim beradigan til yo'nalishlari bo'yicha tegishli xalqaro sertifikatlar mavjud bo'lishi; o'quv markazlarida yoshlarga ta'lim berish bo'yicha kamida 1 (bir) yillik ish tajribasi bo'lishi; pedagogik va psixologik ko'nikmalarga ega bo'lishi; metodik qo'llanmalardan samarali foydalanishi; Yo'nalishlardan kelib chiqib tegishli darajalarda bilim bera olishi lozim: Ingliz tilidan eng kamida B2 darajada; Rus tilidan eng kamida A2 darajada; Xitoy tilidan eng kamida HSK3 darajada; Yapon tilidan eng kamida N3 darajada; Koreys tilidan eng kamida Topik II (Level 3) darajada; Nemis tilidan eng kamida B2 darajada. Ta'lim metodikasi va monitoring jarayoni o'quvchilarga ta'lim berish bo'yicha har bir yo'nalishda alohida interfaol o'qitish metodlarini inobatga olgan ta'lim dasturi, butun kurs davomida rejalashtirilgan o'qitish grafiklari bo'lishi; dars mashg'ulotlarini belgilangan muddatlarda o'tkazish hamda yoshlarga sifatli, zamon talablariga mos holda ta'lim berish; darslar o'tkazilishi uchun kerakli jihozlarga ega mashg'ulot xonalari bilan ta'minlab berish; o'quv kurslarida ta'lim guruhining 30 nafar o'quvchilardan oshmasligi; o'quvchilarning zamonaviy, eng oxirgi o'quv metodik-qo'llanmalar bilan ta'minlanishi va doimo yangilab borilishi; vaziyat taqozo qilganida, ta'lim oluvchilarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda belgilangan dars jadvallari hamda dasturlariga o'zgartirish kiritish; o'quv mashg'ulotlari boshlanishidan oldin o'quvchining bilim darajasini aniqlash maqsadida diagnostik imtihon (test) sinovlari o'tkazishi va uning bilim olish darajasini har oyda

kamida 1 marotaba imtihon (test) sinovlarini o'tkazish orqali monitoring qilib borish lozim. Bunda, oylik imtihon testlaridan yetarli ball to'play olmagan, dars jarayonlariga e'tiborsizlik bilan yondashishi natijasida o'zlashtirishi sust bo'lgan o'zlashtirilishi past bo'lgan yoshlar haqida Agentlikning tuman (shahar) bo'limi va mahalladagi yoshlar yetakchisini bu haqida xabardor qilish; uzrli sabablarsiz ketma-ket 3 kunlik dars mashg'ulotlarida qatnashmagan o'quvchilar to'g'risida Agentlikning tuman (shahar) bo'limi va mahalladagi yoshlar yetakchisini bu haqida xabardor qilish; ta'lim jarayonida eng kamida 1 oylik o'quv amaliyot mavjud bo'lishi; kursni muvaffaqiyatli tamomlagan ishsiz yoshlarni doimiy ish bilan ta'minlashiga ko'mak berilishi lozim. O'quv kurslarida ishtirok etish davomida o'quvchilarga qo'yiladigan talablar. "Yoshlar daftari"ga loyiha doirasida quyidagi toifaga mansub yoshlar kiritiladi: Oila a'zosi "Temir daftar"ga, "Ayollar daftari"ga yoki "Ijtimoiy himoya yagona reyestri"ATga kiritilgan yosh fuqaro. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan yosh fuqaro. Boquvchisini yo'qotgan, yetim yoki ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan yosh fuqaro. I yoki II guruh nogironligi bo'lgan yosh fuqaro.

IV. O'quv markazi tomonidan murojaat qilish tartibi O'quv markazi nodavlat ta'lim tashkilotining nomi, STIR, o'qitiladigan zamonaviy kasb, xorijiy til turi yoki axborot texnologiyalar yo'nalishi, o'quv kursining bir oylik to'lovi miqdori va umumiy muddati ko'rsatilgan holda, "Yoshlar daftari" elektron platformasi (yoshlardaftari.uz) orqali "Kelajak kasblari" loyihasi hamkorlik qilish yuzasidan ariza qoldiradi.

Xulosa o'rniga shuni aytish joizki, Yangi O'zbekiston yoshlari hamda o'quv muassasalari shiddat ila o'zgarimoqda, rivojlanmoqda. Yoshlarning ongida faqat diplom olish uchungina emas, balki bilim, tajriba va mahoratga ega bo'lishga harakat qilmoqda. Pedagogika jahon miqiyosida tan olingan metodlardan foylanilmoqda. Misol tariqasida, Fillandiya o'quv dasturi asosida tashkillangan ta'lim maskanlariga e'tiborimizni tortmasdan qolmaydi. Yoshlarimizning bilim salohiyati rivojlanganiga va rivojlanayotganiga ko'plab misollar kelirishimiz mumkin. Kelajak yoshlaimiz qo'lida ekan biz pedagogika va kelajak kasblari ko'proq urg'u berishimiz kerak.

Adabiyotlar

- 1.Ya.Mamatova, S.Sulaymanova. O'zbekiston mediata'lim taraqqiyot yo'lida. O'quv qo'llanma. 2015-yil.
- 2.Media va axborot savodxonligini shakllantirishning pedagogik jihatlari. O'quv-amaliy qo'llanma. 2017-yil
- 3.Infocom.uz/axborot-texnologiyalari.4.Uz.denometr.com